

Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi tomonidan 2024-yilda amalga oshirilgan ishlar va 2025-yildagi ustuvor vazifalar ijrosi to'g'risida ma'lumot

So'ngi yillarda iqtisodiyotni rivojlantirish, mineral xomashyo bazasini kengaytirish va mineral resurslardan samarali foydalanishga katta e'tibor qaratilmoqda. Tog'-kon sanoati va geologiya sohasida 2024-yilda bir qator ishlar amalga oshirildi, joriy yilda ham soha oldiga ulkan rejalar, maqsadlar qo'yilgan.

2024 yilgi mineral xomashyo bazasini rivojlantirish davlat dasturi doirasida **2,3 mln metr** (yillik rejaga nisbatan **103 %**) **burg'ilash ishlari**, **261,2 ming kub metr** (**101 %**) **yer usti tog'-kon ishlari**, **8,8 ming metr** (**101,7%**) **yer osti tog'-kon ishlari**, **6,8 ming kv km 2D** (**100 %**) va **3,1 ming kv km 3D** (**100 %**) seysmik qidiruv ishlari amalga oshirildi.

Jami **299 ta** loyihalar bo'yicha geologiya-qidiruv ishlariga **2,5 trln so'm**, shundan **850 mlrd so'm** byudjet mablag'lari hamda **1,6 trln so'm** tog'-kon sanoati korxonalari mablag'lar o'zlashtirildi.

Natijada **oltin** zaxiralari - yillik rejaga nisbatan **100 foiz**, **kumush** – **103 foiz**, **mis** – **100 foiz**, **uran** – **197 foiz**, **qo'rg'oshin** – **100 foiz**, **rux** – **123 foiz**, **volfram** – **102 foiz**, **yer osti suvlari** – **112 foiz**, **ko'mir** **125 foiz** miqdorida ko'paytirildi.

Chuqur qidiruv burg'ilash uchun neft va gazga istiqbolli **19 ta** yangi maydonlar aniqlandi hamda **uglevodorod resurslari** **194 foiz** miqdorida o'stirildi.

Natijada, xorijiy va mahalliy kompaniyalar tomonidan **Buxoro-Xiva** hududida **Yangi Kultak**, **Chunagar**, **Alachavan**, **Koktepa**, **Xidir**, **Ustyurt** regionida **Kuyi Shege**, **Farg'ona** regionida **Yangi Avval**, **Surxondaryo** regionida **Kuyi Xaudag** gaz-kondensat konlari aniqlandi.

2024 yilda Davlat zaxiralar komissiyasi tomonidan **52 ta** kon, jumladan **1 ta** **oltin**, **4 ta** **uran**, **4 ta** **uglevodorod**, **4 ta** **yer osti suvlari**, **1 ta** **ko'mir** va **38 ta** **noruda konlar** zaxiralari tasdiqlandi.

Tog'-kon sanoati korxonalari bo'yicha **mahsulot ishlab chiqarish** hajmi **159,6 trln so'mni** tashkil etib (reja **111 %**), shundan **qimmatbaho va rangli metallurgiya** sohasida **132,1 trln so'm** (**106,2 %**), **qora metallurgiya** sohasida **11 trln so'm** (**87,5 %**), **uran** sohasida **13,7 trln so'm** (**146 %**), **ko'mir** sohasida **2,2 trln so'm** (**101,5 %**), **noyob metallar** sohasida **573,2 mlrd so'm** (**116 %**) mahsulotlar ishlab chiqarildi.

Mahsulotlar va xizmatlar eksporti jami **1,5 mlrd dollar** (o'sish **125 %**), shundan, **rangli metallar** sohasida **611 mln dollar** (reja **111 %**), **qora metallurgiya**

sohasida **83,4 mln dollar** (**123 %**) va **uran va noyob metallar** sohasida **820 mln dollar** (**192 %**) ulushni tashkil etdi.

Shu bilan birga bugungi kunda **yangi bozorlar o'zlashtirilib, Gvineya, Senegal, Portugaliya** va **Serbiya** davlatlariga **mis kuporosi** eksporti qilinmoqda.

Respublikada qo'shilgan qiymatli mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida mis xomashyosiga bo'lgan talabning ortishi sababli uni ichki bozorda sotish hajmlari yildan yilga ortib bormoqda, xususan 2023-yilda **79,9 ming tonna**, 2024-yilda **90,5 ming tonna** mis katodi ichki bozorda realizatsiya qilindi

Mahalliyashtirish dasturiga muvofiq tizimdagi korxonalar tomonidan **7 trln so'mlik** (**o'sish 145 %**) turli xildagi uskuna, mashina va butlovchi, ehtiyot qismlar ishlab chiqarildi.

Sanoat kooperatsiyasi orqali kombinatlar tomonidan **9,2 trln so'mlik** (**o'sish 122 %**) **mahalliy korxonalar** tomonidan ishlab chiqarilayotgan import o'rnini bosuvchi yangi mahsulotlarni xarid qilish bo'yicha hamkorlik shartnomalari imzolangan.

Xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish samaradorligi bo'yicha **Investitsiya dasturi** doirasida **2024 yilda** umumiy qiymati **27,3 mlrd dollarlik 60 ta** loyiha doirasida **3,6 mlrd dollar** (*shundan 3,2 mlrd dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar*) **investitsiyalar** o'zlashtirildi.

Shundan, **geologiya sohasi** bo'yicha manzilli dasturdagi **28 ta** loyiha doirasida **571,8 mln dollar** va **kon-metallurgiya korxonalarida** jami **32 ta** loyihalar doirasida **3 mlrd dollar investitsiyalar** o'zlashtirildi.

Yer qa'ridan foydalanish sohasidagi davlat xizmatlarini ko'rsatilishi bo'yicha tadbirkorlik subyektlariga amaliy ko'mak berish maqsadida **"Front-office" mexanizmi** orqali arizalarni qabul qilish joriy qilinib, elektron, to'g'ridan-to'g'ri va telefon orqali kelib tushayotgan murojaatlarni o'z vaqtida ko'rib chiqilishi ta'minlanmoqda.

"Front-office" mexanizmi orqali **280 dan ortiq** tadbirkorlik subyektlariga ko'mak ko'rsatildi.

Shu bilan birga, **"Call-markaz"** faoliyati **"1356"** qisqa raqam joriy qilinib, u orqali aholi va tadbirkorlik subyektlaridan kelib tushayotgan savollarga o'z vaqtida javob va maslahatlar berib borilmoqda.

2024 yilda yer qa'ridan foydalanish sohasidagi **11 turdagi** davlat xizmatlarini ko'rsatish to'liq elektron shaklga o'tkazilgan.

Tadbirkorlik subyektlariga **2024 yilda** yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqi uchun va yer osti suvlaridan foydalanishga jami **4 mingdan ortiq** ruxsatnomalar berildi.

Yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqi uchun berilgan ruxsatnomalar hisobiga **2024 yilda 167,3 mlrd so'm** mablag'lar davlat byudjetiga o'tkazildi.

Noruda foydali qazilmalarni qazib olishga berilgan ruxsatnoma shartlarini bajarilishi bo'yicha **masofaviy monitoring** olib borilmoqda.

2024 yilda Tog'-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasi tomonidan jami **364 ta** foydali qazilmalarni **noqonuniy** qazish holatlari aniqlandi. Natijada **9,9 mln m³** foydali qazilma hajmi hamda **447,5 mlrd so'm** **potensial zarar** aniqlanib, tekshirish materiallari tegishli tartibda huquqni muhofaza qilish organlariga taqdim etildi.

Bundan tashqari, **kon chegarasi hududidan** tashqarida **noqonuniy** qazish ishlarini olib borayotgan **514 ta**, shundan **290 ta** tadbirkorlik subyektlari tomonidan **chegara hududidan tashqarida** noqonuniy qazish ishlari olib borilganligi aniqlanib, natijasida **3,8 mln m³** foydali qazilma hajmi hamda **69,2 mlrd so'mlik zarar** aniqlangan. Tekshirish materiallari tegishli tartibda huquqni muhofaza qilish organlariga taqdim etib borilmoqda.

Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi va tizim korxonalarida korrupsiyani oldini olish va unga chek qo'yishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar izchil amalga oshirilmoqda.

2024 yilda vazirlik va tizim korxonalarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati to'liq yo'lga qo'yilib, mazkur tuzilmalarda **40 nafar**dan ortiq xodimlar faoliyat yuritmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki me'yoriy hujjatlar va tartib-qoidalar, **"Korrupsiyaga qarshi siyosati"**, **"Odob-axloq kodeksi"**, **"Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish siyosati"**, **"Sovg'a berish va qabul qilish siyosati"** kabi sohaga oid **20 dan ortiq** ichki me'yoriy hujjatlar qabul qilindi.

Sohada davlat xizmatlarini ko'rsatishda raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali korrupsiyani keltirib chiqaruvchi xavflar kamaytirildi. Xususan, **3 turda**, ya'ni strategik, noruda, qimmatbaho metallarni oltin izlovchilar usulida qazib olish faoliyati uchun hamda yer osti suvlaridan foydalanish maqsadida beriladigan ruxsatnomalar

elektron ko'rinishda inson omilisiz **"E-Auksion"** va **"Litsenziya"** axborot tizimi yoki **Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali** orqali yo'lga qo'yildi.

2025 yil 5 mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida o'tkazilgan yig'ilishda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha belgilab berilgan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi hamda Bosh prokuratura bilan birgalikda **"Yo'l xarita"**si ishlab chiqildi.

Sohada ochiqlikni ta'minlash, samaradorlik va natijadorlikni oshirish hamda ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik borasida **2024 yil** davomida Vazirlik va tizimdagi korxonalar tomonidan jami **18 ta** matbuot anjumani, **10 ta** press tur, **31 ta** brifing o'tkazildi.

Ijtimoiy tarmoqlarda turli tadbirlardan jami **24 ta** onlayn efir, televideniye, radio va matbuotda **400 dan ziyod** materiallar berilgan.

Yer osti suvlari monitoringini yuritish imkonini beruvchi raqamli ma'lumotlar bazasini shakllantirildi hamda zamonaviy uskunalar va dasturiy ta'minotlar bilan jihozlangan **Situatsion markaz** faoliyati yo'lga qo'yildi.

Davlat geologiya fondidagi geologik hisobotlari elektron ko'rinishga o'tkazilib arxiv hisobotlari bo'yicha **raqamli axborotlar banki** tashkil etildi.

Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi tizimida **2025 yil 1 yanvar** holatiga jami **121 301 ta** xodimlar faoliyat yuritmoqda. Bunda, mutaxassislar **21 502 nafar**, ishchilar **89 085 nafar**, texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar **10 714 nafar**.

Shuningdek, Kon-geologiya vazirligi bo'yicha ilmiy darajaga ega xodimlar **407 nafar**ni tashkil etib, bunda fan nomzodlari **323 nafar**, fan doktorlari **84 nafar**ni tashkil etadi.

"Tog'-kon va geologiya sohasi xodimlari malakasini oshirish instituti" davlat muassasasi tomonidan **2024 yil** mobaynida **46 yo'nalishda 2 600 nafar** muhandis-texnik xodimlar malaka oshirish va **11 ta mutaxassislik** bo'yicha **206 nafar** ishchi xodimlar qayta tayyorlash o'quv kurslariga jalb qilindi.

2024 yil 2 dekabrda Davlatimiz rahbari huzurida bo'lib o'tgan yig'ilishda sohada **2025 yilgi asosiy** vazifalar belgilab berilgan. **2025 yilda** sohani transformatsiya qilish orqali dunyo bozorida raqobatdoshligini oshirish, mahsulot **tannarxini tushirish**, faoliyatni to'liq **raqamlashtirish**, **xalqaro bozorlardan mablag'** jalb qilish, **yangi texnologiyalarni joriy** qilib, ish jarayonini **avtomatlashtirish** eng muhim vazifalar ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

Umumiy hisobda **2025 yilda 285 ta** geologik loyiha bo'yicha geologiya-qidiruv ishlariga jami **900 mlrd so'm** byudjet mablag'lari hamda **2,1 trln so'm** tog'-kon sanoati korxonalari mablag'lari yo'naltiriladi.

Tizim tashkilotlarini modernizatsiya qilishga byudjet mablag'lari hisobidan **3,6 mlrd so'm** hamda maxsus hisob mablag'lari hisobidan **31,1 mlrd so'm** yo'naltiriladi. Natijada **22 turdagi foydali qazilmalar zaxira** va **resurslari** ko'paytiriladi.

Shuningdek, **neft va gazga** istiqbolli **19 ta** yangi maydonlar tayyorlanadi, hamda **uglevodorod resurslari 62 mln tonna** miqdorida o'stiriladi.

2025 yilda mavjud yer osti boyliklaridan foydalanishni kengaytirish maqsadida yana **400 ta** geologik obyektlar "**E-AUKSION**" platformasiga joylashtiriladi, jumladan **30 ta asosiy turdagi foydali qazilmalarga, 100 ta oltin izlovchilar usulida qazib olishga** va **270 ta** noruda xomashyosiga geologik obyektlar auksion savdolari orqali taklif etiladi.

Tog'-kon sanoati korxonalari bo'yicha jami mahsulot ishlab chiqarish hajmi **173,8 trln so'mga** yetkaziladi va o'sish **109 foizga** ta'minlanadi. Shundan, qimmatbaho va rangli metallar sohasida **141,3 trln so'm**, qora metallurgiya sohasida **13,6 trln so'm**, uran sohasida **15,8 trln so'm**, ko'mir sohasida **2,2 trln so'm**, noyob metallar sohasida **800 mlrd so'm** mahsulotlar ishlab chiqariladi.

Mahsulot va xizmatlar eksport hajmi jami **1,6 mlrd dollar**ga yetkaziladi. Jumladan, rangli metallar sohasida **489,8 mln dollar**, qora metallurgiya sohasida **70,6 mln dollar**, uran va noyob metallar sohasida **1061,4 mln dollar** mahsulotlar eksport qilinadi.

Mahalliyashtirish dasturiga muvofiq vazirlik tizimidagi korxonalar tomonidan **2025 yilda 7,5 trln so'mlik** (o'sish **108 %**) uskuna, mashina, ehtiyot va butlovchi qismlar ishlab chiqarish rejalashtirilgan.

Sanoat kooperatsiyasi orqali kombinatlar tomonidan **2025 yilda 14,3 trln so'mlik** (o'sish **154 %**) **mahalliy korxonalar** tomonidan ishlab chiqarilayotgan yangi mahsulotlarni xarid qilish bo'yicha hamkorlik shartnomalari imzolangan.

Xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish samaradorligi bo'yicha **2025 yilda 57 ta** loyiha doirasida **2,6 mlrd dollar investitsiyalar** o'zlashtiriladi. Bunda, **2,3 mlrd dollar** to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va **377,5 mln dollar** o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Xususan:

Kon-geologiya vazirligi tomonidan **27 ta** loyiha doirasida – **1 021 mln dollar** (o'sish **2 barobar**) xorijiy investitsiyalar o'zlashtiriladi.

Jumladan, Fransiyaning **Orano Mining**, Yaponiyaning **JOGMEC**, Avstriyaning **Lasselsberger Group**, Misrning **Orascom Investment**, Turkiya Geologiya xizmati **MTA** va **LIDYA CALIK Holding** hamda boshqa kompaniyalar bilan qo'shimcha **26 tonna** oltin, **15 ming tonna** volfram, **700 ming tonna** mis, **14 ming tonna** uran va **7 mln km³** marmar zaxiralari ko'paytiriladi.

Shuningdek, joriy yilda Turkiyaning **MMG kompaniyasi** tomonidan **Qoratog' koni** negizida yillik quvvati **3 tonna** oltin ajratib olish fabrikasi, **Orano kompaniyasi** tomonidan **1 000 tonna** uran, **Lasselsberger kompaniyasi** tomonidan yillik quvvati **200 ming tonna** quruq qurilish aralashmalari va yuqori sifatli **mikrokalsit** hamda **5 mln m²** terratsio plitalarini ishlab chiqarish loyihalari ishga tushiriladi.

“Navoiy KMK” AJ tomonidan **9 ta** loyiha doirasida **545,8 mln dollar** xorijiy investitsiyalar o'zlashtiriladi.

Investitsiya loyihalarini amalga oshirish doirasida **1 472 ta** (o'sish **169,1 %**) yangi ish o'rinlari yaratiladi.

“Olmaliq KMK” AJ tomonidan **9 ta** loyiha doirasida **859,2 mln dollar** (shundan **600,2 mln dollar** xorijiy investitsiyalar) o'zlashtiriladi.

Joriy yilda **60 mln tonna** ma'danni qayta ishlash quvvatiga ega **Yoshlik-I konini o'zlashtirish** va **3-MBF qurilishi** (*I bosqich, I navbat*) loyihasini ishga tushirilishi natijasida **5 647 nafar** yangi ish o'rinlari yaratiladi.

“Navoiyuran” DK tomonidan **5 ta** loyiha doirasida **135 mln dollar** (shundan **30 mln dollar** xorijiy investitsiyalar) o'zlashtirilishi rejalashtirilgan. Investitsiya loyihalarini amalga oshirish doirasida **300 ta** yangi ish o'rinlari yaratiladi.

“O'zmetkombinat” AJ tomonidan **6 ta** loyiha doirasida **82,5 mln dollar** (shundan **77 mln dollar** xorijiy investitsiyalar) o'zlashtiriladi.

Joriy yilda **1 mln tonna** issiq prokatlangan po'lat list ishlab chiqarish quvvatiga ega **Quyuv prokatlash majmuasi** loyihasini ishga tushirilishi natijasida **529 nafar** yangi ish o'rinlari yaratiladi.

Shuningdek, joriy yilning **7 mart** kuni muhtaram Prezidentimiz huzurida **sanoat uchun muhim minerallar xomashyo bazasini kengaytirish va qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish** bo'yicha bo'lib o'tgan taqdimotda Davlatimiz rahbari bu borada sanoat tajribalari va texnologiya transferini amalga oshirish, zamonaviy laboratoriya va o'quv markazlari ochish bo'yicha topshiriqlar berdilar.

Kelgusi uch yilda **28 ta** noyob mineral bo'yicha **2,6 milliard dollarlik 76 ta** loyihani amalga oshirish mo'ljallanmoqda. Buning uchun xomashyo bazasini kengaytirish maqsadida geologiya-qidiruv va ilmiy-tadqiqot ishlariga qo'shimcha mablag' ajratish ko'zda tutilmoqda.

Eng asosiy vazifa – zamonaviy texnologiyalarni qo'llab, qimmat xomashyoni rudadan ajratib olish, sofliğini oshirish va yuqori qiymatli mahsulotlar yaratish. Hozircha shu kabi 18 ta loyiha ishlab chiqilgan.


Sohada “xomashyo – qayta ishlash – ilm va texnologiya – tayyor mahsulot” zanjirini kengaytirish maqsadida molibden va volframga boy Toshkent va Samarqand viloyatlarida texnoparklar tashkil qilinadi.



**Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi tomonidan 2024-yilda amalga oshirilgan ishlar
va 2025-yildagi ustuvor vazifalar**



2024 yil - Mineral xomashyo bazasini rivojlantirish dasturi bo'yicha geologiya-qidiruv ishlari




Tizim tashkilotlarini modernizatsiya qilishga budget mablag'lari hisobidan **2,1 mlrd so'm**

2024 yil - Mineral xomashyo bazasini rivojlantirish dasturi bo'yicha geologiya-qidiruv ishlari






2024 yil - Mineral xomashyo bazasini rivojlantirish dasturi bo'yicha zaxiralar ko'payishi



2024 yil - Mineral xomashyo bazasini rivojlantirish dasturi bo'yicha prognoz resurslari o'stirilishi





2024 yilda Mineral xomashyo bazasini rivojlantirish dasturi bo'yicha yer osti suvlari




2024 yil - Mineral xomashyo bazasini rivojlantirish dasturi bo'yicha neft va gaz foydali qazilmalari






2024 yil - Tizimosti kon-metallurgiya korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish hajmi



2024 yil - Tarmoq korxonalari tomonidan import hajmini kamaytirish bo'yicha mahallilashtirish dasturi doirasida

Mahallilashtirish dasturiga muvofiq tizimdagi korxonalar tomonidan **7 trln so'mlik** uskuna, mashina, ehtiyot va butlovchi qismlar ishlab chiqarildi (**o'sish sur'ati 146 %**)





2024 - YILDA TOG'-KON SANOATI VA GEOLOGIYA SOHASI MAQSADLI KO'RSATKICHLARINING BAJARILISHI 6

159,6 trln so'm

ishlab chiqarish

2024 - yilda umumiy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi

\$1,5 mlrd

Eksport hajmi

82,7 trln so'm

Byudjetga to'lovlar

2024 - yilda umumiy

\$3,6 mlrd

Investitsiya

2024 – yilda jami investitsiyalar o'zlashtirildi

2,5 trln so'm

Geologiya

shundan 2024 - yilda davlat byudjetidan 850 mlrd so'm

2024 - yilda tog'-kon sanoati korxonalari ko'rsatkichlari

"Navoiy KMK" AJ

Ishlab chiqarish **94** trln so'm

Oltin **105,3** %

Kumush **113,4** %

Investitsiya **\$ 789,6** mln

Geologiya **698,8** mlrd so'm

Mahsulot **oltin, kumush**

"Olmaliq KMK" AJ

Ishlab chiqarish **38** trln so'm

Oltin **100,5** %

Kumush **100,0** %

Mis **100,0** %

Investitsiya **\$ 1 943,9** mln

Eksport hajmi **\$ 610,9** mln

Geologiya **187,2** mlrd so'm

Mahsulot **mis, oltin, kumush**

"Navoiyuran" DK

Ishlab chiqarish **13,7** trln so'm

Uran **126,0** %

Investitsiya **\$ 126,0** mln

Eksport hajmi **\$ 820** mln

Geologiya **677,9** trln so'm

Mahsulot **uran**

"O'zmetkombinat" AJ

Ishlab chiqarish **7,5** trln so'm

Metall prokat **780** ming t

Investitsiya **\$ 151,3** mln

Eksport hajmi **\$ 29,7** mln

Mahsulot **Metall prokat va, po'lat sharlar**

"O'zbekko'mir" AJ, "Sharg'unko'mir" AJ

Ishlab chiqarish **2,2** trln so'm

Ko'mir **7,7** mln t

"O'zbekko'mir" AJ **6,7** mln m

"Sharg'unko'mir" AJ **1,0** mln m

Mahsulot **ko'mir**

"O'zbekiston texnologik metallar kombinati" AJ




Ishlab chiqarish **600,0** mlrd so'm

Molibden metali **779,6** t

Volfram konsentrati **188,6** t

Qattiq qotishmali mahsulotlar **16,4** t

Mahsulot **molibden, Volfram**





Geologiya-qidiruv ishlarini moliyalashtirish

	Geologiya loyihalari	285	ta
	Geologiya-qidiruv ishlari	3,0	trln so'm
	Byudjet mablag'lari	900	mlrd so'm
	"Olmaliq KMK" AJ	266,4	mlrd so'm
	"Navoiy KMK" AJ	849,0	mlrd so'm
	"Navoiyuran" DK	989,2	mlrd so'm



Geologiya-qidiruv ishlarining asosiy turlari

	Burg'ilash ishlari	2,5	mln m
	Yer usti tog'-kon ishlari	305,0	ming kub m
	Yer osti tog'-kon ishlari	7,0	ming m
	2D seysmik-qidiruv	6 600	kv km
	3D seysmik-qidiruv	1 800	kv km

Foydali qazilmalarning zaxira va prognoz resurslarini ko'paytirish (yillik rejaga nisbatan)

	Oltin	100 % ↑		Qo'rg'oshin	100 % ↑
	Kumush	100 % ↑		Volfram	100 % ↑
	Mis	100 % ↑		Yer osti suvlari	100 % ↑
	Uran	100 % ↑		Ko'mir	100 % ↑
	Rux	100 % ↑			



2025-yilda auksionga chiqariladigan obyektlar ro‘yxati tasdiqlandi

Asosiy turdagi foydali qazilmalar
Oltin, kumush, mis, temir, qo‘rg‘oshin, qalay

30
ta

Noruda xomashyosi
Qum-shag‘al, granit, marmar, ohaktosh, shisha xomashyosi, qurilish toshlari

270
ta

Oltin izlovchilar usulida qazish
Oltin

100
ta

Jami: 400 ta obyekt

2025-yil I-chorakda auksion orqali sotilgan



25,4
mlrd so‘m

31 ta

Oltin izlovchilar usulida qazish



8,3
mlrd so‘m

102 ta

Noruda xomashyosiga

Jami: 33,7 mlrd so‘m

Yer qa‘ri uchastkalarining boshlang‘ich narxi (BHM)

Foydali qazilma turi	Amaldagi narx	Taklif etilgan narx
uglevodorod konlari	6 500	10 000
oltin konlari	2 600	10 000
qimmatbaho va rangli metallar konlari	1 300	5 000
rudali foydali qazilmalar konlari	650	2 500
noruda foydali qazilmalarni		
- Geologiya-qidiruv ishlari uchun	36	300
- foydali qazilmalarni qazib olish uchun	72	600
oltin izlovchilar usulida qazish har 1 gektariga	35	100
foydali qazilmalarni qazib olish (qazib olinadigan hajmining bahosiga nisbatan)	0,15%	0,6%

2025-YIL YAKUNIGA QADAR YER QA‘RIDAN FOYDALANISHGA AUKSION ORQALI TAKLIFLAR



244,6
mlrd so‘m

Jami
Boshlang‘ich narx



186,0
mlrd so‘m

30 ta

Strategik foydali qazilmalarga



55,0
mlrd so‘m

270 ta

Noruda xomashyosiga



3,2
mlrd so‘m

100 ta

Oltin izlovchilar usulida qazish



173,8 trln so'm

ishlab chiqarish

2025 - yilda umumiy sanoat mahsulotlari ishlab chiqariladi

\$1,4 mlrd

Eksport hajmi

87,3 trln so'm

Byudjetga to'lovlar

2025 - yilda umumiy

\$2,6 mlrd

Investitsiya

2025 – yilda jami investitsiyalar o'zlashtiriladi

3,0 trln so'm

Geologiya

shundan 2025 - yilda davlat byudjetidan 900 mlrd so'm

2025 - yilda tog'-kon sanoati korxonalari ko'rsatkichlari

“Navoiy KMK” AJ

Ishlab chiqarish **100,7 trln so'm**

Oltin **100,0 %**

Kumush **100,0 %**

Investitsiya **\$ 545,8 mln**

Geologiya **698,9 mlrd so'm**

Mahsulot **Oltin, Kumush**

“Olmalik KMK” AJ

Ishlab chiqarish **40,6 trln so'm**

Oltin **100,0 %**

Kumush **100,0 %**

Mis **100,0 %**

Investitsiya **\$ 859,2 mln**

Eksport hajmi **\$ 469,9 mln**

Geologiya **197,7 mlrd so'm**

Mahsulot **Mis, Oltin, Kumush**

“Navoiyuran” DK

Ishlab chiqarish **15,9 trln so'm**

Uran **100,0 %**

Investitsiya **\$135 mln**

Eksport hajmi **\$ 810 mln**

Geologiya **773,4 trln so'm**

Mahsulot **Uran**

“O'zmetkombinat” AJ

Ishlab chiqarish **10,4 trln so'm**

Metall prokat **1,0 mln t**

Investitsiya **\$ 82,5 mln**

Eksport hajmi **\$ 70,3 mln**

Mahsulot **Metall prokat va po'lat sharlar**

“O'zbekko'mir” AJ, “Sharg'unko'mir” AJ

Ishlab chiqarish **2,2 trln so'm**

Ko'mir **7,6 mln t**

“O'zbekko'mir” AJ **6,6 mln t**
“Sharg'unko'mir” AJ **1,0 mln t**

Mahsulot **Ko'mir**

“O'zbekiston texnologik metallar kombinati” AJ

Ishlab chiqarish **801 mlrd so'm**



Molibden metali **830 t**

Volfram konsentrati **300 t**

Qattiq qotishmali mahsulotlar **37,7 t**


Eksport hajmi **\$ 49,5 mln**

Mahsulot **molibden, Volfram**





Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi hamda tarmoq korxonalari tomonidan 2024 yilda investitsiya dasturiga muvofiq o'zlashtirilgan investitsiyalar





SOHADAGI INVESTITSIYA KO'RSATKICHLARI

HOLATI

2025 - yil loyihalar rejasi

27 ta

\$1,0 mlrd

LOYIHA YO'NALISHI

Qimmatbaho va rangli metall

9 ta

Uran xomashyosi

4 ta

Ko'mir xomashyosi

3 ta

Polimetal, temir, volfram va boshqalar

11 ta

2025 - YILDA ISHGA TUSHADIGAN YIRIK LOYIHALAR

MBF-3

Qiymati
4 620 mln doll

Ishga tushish
iyun

Ish o'rni
5 647 nafar

Quvvati
60 mln tonna

Muruntov (V navbat 1-boschiq)

Qiymati
733,9 mln doll

Ishga tushish
dekabr

Ish o'rni
1 472 nafar

Quvvati
47 mln tonna

Quyuv-prokat majmuasi

Qiymati
824 mln doll

Ishga tushish
may

Ish o'rni
529 nafar

Quvvati
1 mln tonna

ASOSIY PARAMETRLAR

2025 - YILDA INVESTITSIYA KO'RSATKICHLARI, mln \$

T/r	Tashkilot nomi	2025 - yil prognoz
1	Kon-geologiya vazirligi	1 021
2	Navoiy KMK	546
3	Olmalik KMK	859
4	O'zmetkombinat	83
5	Navoiyuran	135
	Jami	2 644

INVESTITSIYA

\$3,6 mlrd

\$2,6 mlrd

GEOLOGIYA YO'NALSHI

\$572 mln

\$1,0 mlrd

TOG-KON YO'NALISHI

\$2,9 mlrd

\$1,6 mlrd

YANGI ISH O'RINLARI

2,1 ming

6,5 ming



"NAVOIY KMK" AJ

Loyiha nomi	Qiymati (mln doll)	O'zlashtirish (mln doll)	Ish o'rni (ta)	Loyiha Quvvati
Muruntov koni o'zlashtirish (V navbati)	733,9	13,0	1 472	47 mln tonna ma'dan
Quyosh fotoelektr stantsiyasi qurish	264	203,6	67	500 MVt



"OLMALIQ KMK" AJ

Yoshlik-I konini o'zlashtirish va 3-MBF qurilishi (I bosqich, birinchi navbat) loyihasi	4 620,4	246,6	5 647	60 mln tonna ma'danni qayta ishlash
"Olmaliq KMK" AJning asosiy ishlab chiqarish quvvatlarini qayta qurish va barqarorlashtirish dasturi	458,6	57,0	ko'zda tutilmagan	Ishlab chiqarish quvvatlarini barqarorlashtirish
"Olmaliq KMK" AJ tomonidan Pop tumanida o'z ehtiyojlari uchun Quvvati 500 MVt bo'lgan quyosh fotoelektr stantsiyasini qurish loyihasi	220,0	100,0	50	500 MVt



"O'zmetkombinat" AJ

Quyuv prokatlash majmuasini qurish	824,0	24,3	529	1,04 mln t issiq prokatlangan po'lat list
---------------------------------------	-------	------	-----	---





Mahalliyashtirish dasturi



Yangi loyihalar

Loyihalar soni

Qiymati

71

ta

2 197

mlrd so'm



Kengaytirilgan loyihalar

Loyihalar soni

Qiymati

179

ta

5 280,1

mlrd so'm



Mahsulot nomi



Ekskavator va maydalash uskunalarga quyma ehtiyot qismlar



Ma'danlarni tashish uchun vagon samosvallar (qayta ta'mirlash)



Korxona nomi



"Olmaliq KMK" AJ



"Navoiy KMK" AJ



Joylashgan manzili

Toshkent viloyati

Navoiy viloyati

Sanoat kooperatsiyasi



Yirik korxonalar



"Navoiy KMK" AJ



"Olmaliq KMK" AJ



"O'zmetkombinat" AJ



"Navoiyuran" DK



"O'zbekko'mir" AJ

Qiymati

7 trln so'm

4,9 trln so'm

1,2 trln so'm

1,1 trln so'm

0,03 trln so'm



Mahsulot nomi



Turli o'lchamdagi podshipniklar



Portlatish moslamasi



Sulfat kislota



Korxona nomi



"SREDAZPODSHPNIK" MChJ



"MAXAM UZBEKISTAN" MChJ QK



"Zarafshon industrial technology" MChJ



Joylashgan manzili

Toshkent shahri

Toshkent viloyati

Navoiy viloyati

Shatakka olish mexanizmi



Yirik korxonalar



"Navoiy KMK" AJ



"Olmaliq KMK" AJ



"O'zmetkombinat" AJ



"Navoiyuran" DK



"O'zbekko'mir" AJ



Shatakka olingan korxonalar soni

43 ta

25 ta

10 ta

17 ta

3 ta

Qiymati

752 mlrd so'm

350 mlrd so'm

1,3 trln so'm

195 mlrd so'm

2,6 mlrd so'm



Mahsulot nomi



Kon-shaxta jihozlari va ehtiyot qismlari



Marganets konsentrati



Yopishqoq PVX lenta



Korxona nomi



"Gidro stanko servis" MChJ



"Alpha Mining Group – Asia" MChJ



"Navpolimerplast" MChJ



Joylashgan manzili

Navoiy viloyati

Toshkent viloyati

Navoiy viloyati

250

Loyiha

7,5

trln so'm

14,3

trln so'm

98

ta korxona

2,6

trln so'm



Jami murojaatlar

400 ta

Murojaat yozma, ogʻzaki, elektron va Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali murojat kelib tushgan

✓ **201 ta** murojaat vazirlikka togʻridan-togʻri kelib tushgan



Yozma murojaatlar

72 ta



Ogʻzaki murojaatlar

67 ta



Elektron murojaatlar

62 ta



161 ta murojaat qanoatlantirildi



35 ta murojaat tushuntirildi



PREZIDENTGA MUROJAAT

Prezident virtual qabulxonasi orqali

JAMI

199 ta

murojaat kelib tushgan

181 ta murojaat qanoatlantirilgan


17 ta murojaat tushuntirish berilgan

1 ta murojaat rad etilgan

Vazirlikka 2024 – yilda kelib tushgan jami murojaatlar kesimida murojaatlar



Kelib tushgan murojaatlarning hududlar boʻyicha taqqoslama tahlili



Vazirlik rahbariyati tomonidan qabul qilingan murojaatlar

171 ta – Jami qabullar

93 ta vazir qabuli

78 ta oʻrinbosarlar qabuli

18 ta

Ishonch telefoni



144 ta

Jismoniy shaxslar



57 ta

Yuridik shaxslar



12 ta

Oʻtkazilgan sayyor qabullar

